

ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYALARIDA RUHIYAT TASVIRINING IFODALANISHI

Davlatova Ruxsora Barotovna

Alfraganus universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ruhiyat tasvirining ifodalanishi haqida ma'lumot berilgan. Yozuvchining inson ongi va dunyosining betakrok mahorati e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: hikoyachilik, yozuvchi, inson, badiiy, ijodkorlar, obraz, ruhiyat tasviri.

Kirish

Istiqlol davri hikoyachiligida yozuvchilarning inson shaxsiga xilma-xil jihatlardan yondashib, uni fojiaga olib borgan sabablarni badiiy tadqiq etishga intilganliklarini kuzatish mumkin. Insonlarning qilmishlari ularni fojiaga yetaklagani yoki ezgulik, imon va e'tiqodni toptagani sababli inson o'zligidan chekingani, oqibatda yovuzlashib, yo hirsning yoki o'zi amalga oshirgan yomonliklar, yovuzliklar girdobida halokatga yuz tutganini badiiy tasvirlashga intilish Shoyim Bo'tayev, Nazar Eshonqul, Normurod Norqobilov, Salomat Vafo kabi iste'dodli ijodkorlar qatori Zulfiya Qurolboy qizi yaratgan hikoyalar timsolida ham qo'zga tashlanadi.

Asosiy qisim

Zulfiya Qurolboy qizi zamondoshimiz hayoti va ruhiyatini xolis kuzatish orqali, davrimizga xos bo'lgan muhim jarayonlarni inson ruhiyati, idroki, mushohadalaridagi o'zgarishlarga bog'lab yoritishga intiladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, zamondoshimiz ongida, hayoloti va ruhiyatida sodir bo'layotgan jarayonlarni bor ko'lami va turfa ranglari bilan tasvirlash xususiyati yoshlar hikoyachiligida o'ziga xos an'anaga aylanib borayotir.

Yozuvchilarning inson ongi va dunyosining betakror, ziddiyatli

holatlarini hayotning o'zi kabi tabiiyligi bilan badiiy gavdalantirish imkoniyatidan samarali foydalanayotganliklari Zulfiya Qurolboy qizi ijodiga ham xos xususiyat. Adiba yaratgan hikoyalarda ruhiy tahlil

teranligi, voqealarni an'anaviy realistik hikoyalardan bir oz farq qiluvchi ziddiyatli hayotiy lavhalarda gavdalantirish ko'zga tashlanadi. Asar qahramonlari O'z-o'zini taftish etib, o'z borligini rang-barang jihatlaridan namoyon qiladilarki, buni so'nggi davr o'zbek hikoyachiligiga xos xususiyatlarga mushtarak, deyish mumkin. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, zamondoshimiz ongida, xayoloti va ruhiyatida sodir bo'layotgan jarayonlarni bor ko'lami va turfa ranglari bilan tasvirlash xususiyati yoshlar hikoyachiligida o'ziga xos an'anaga aylanib borayotir.

Shunisi e'tiborni tortadiki, adiba o'z hikoyalarida anchayin oddiy odamlar, omadi chopmagan, ishi yurishmagan, nochor, taqdirning noravon yullarida sarsonu sargardon kishilar obrazini yaratish orqali tarviyaviy g'oyani ilgari suradi.

Uzoq umr ko'rishdan bo'lak murod- maqsadi qolmagan Nazar chol ("O, hayot!"), hokisor Xoliq amaki ("Xoliq amaki"), johil va qattiqo'l ota ota Dovul tegirmonchi ("Tafakkur"), xiyonatga qarshi isyonkor ayollar — Shoiri ("Yovuzlik farishtasi"), Xosiyat ("Rashk") obrazlari biz ko'nikkan an'anaviy obrazlardan farq qiladi.

Xususan, tortadiki, adiba o'z hikoyalarida anchayin oddiy odamlar, omadi chopmagan, ishi yurishmagan, nochor, taqdirning noravon yo'llarida sarsonu sargardon kishilar obrazini yaratish orkali muhim tarbiyaviy g'oyani ilgari suradi.

Xususan, "O, Xayot!" hikoyasidagi ezgu xislat — hayotga cheksiz muhabbat, yashash ishtiyoqi tark etmagan orzumand Nazar chol qismati orqali o'quvchiga uzoq umr ham ma'nisiz fojiaiy ma'no kasb etishi mumkinligini anglatadi. Hikoya qahramoni Nazar cholning fikri- yodi faqat yashash, yashash. Bu dunyoni tark etmaslik, yorug' dunyodan toabad bahramand bo'lish orzusi-boshiga ne-ne balo-qazolarni yodirsada, u o'z istagidan chekinmaydi. O'z istagini matonat, ishtiyoq bilan amalga oshirishga intilish Nazar cholni tobora baquvvatlashtirib boradiki, oxir-oqibat niyatiga yetadi: o'g'li, so'ng kampiridan, o'ziga qaraydigan kelinidan, boshqa yaqinlaridan, tanish-bilishlaridan ajraladi. Avlod - zurriyodlari ketma-ket ma'lum vaqtda umr charxpalagida aylanaveradi, ammo Nazar chol o'z xonadonida begonaga aylanib boraveradi. Ko'zi ko'rmaydigan, qulog'i eshitmaydigan, tili kalimaga kelmaydigan, xullas,

butun tanasi o'ziga bo'ysunmaydigan holga tushadi. Biroq uning ongi, aqli hamon teran, yashashga bo'lgan ishtiyoq so'nagan, tirikligidan mamnun, qalbi quvonchga to'la. "Men endi haqiqiy hayotimni yashayapman! Men yashayapman!" — deya hayqirgisi keladi, afsus qurbi yetmaydi. Nazar chol qismati biz uchun juda totli va aziz tuyulgan hayot, yashash baxti kezi kelib o'z ma'nosini yo'qotsa, qadrini ham yuqotishini his qildiradi. Yashashning o'zi inson uchun ham, uni qurshab turgan odamlar uchun ham muayyan ma'no mazmun va qadrga ega bo'lmasa, har qancha ishtiyoq yoki xohishdan qati nazar, umr intixosiga aylanadi. Hikoyani o'qib, bor vujudimiz bilan qazo ham yaratganning ehsoni ekaniga, vaqtida topilgan o'lim, inson uchun bu foniy dunyo azob-uqubatlardan xalos bo'lish, so'ngti najot, balki to'le ekaniga ishonch hosil qilamiz.

Zulfiya Qurolboy qizi, o'zining hikoyalarida ruhiyat tasvirini juda chuqur va ta'sirchan tarzda ifodalaydi. Uning asarlarida inson qalbi, ichki dunyosi, his-tuyg'ulari va psixologik holati muhim o'rin egallaydi. Zulfiya xarakterlarning ichki qarama-qarshiliklarini va ruhiy iztiroblarini aniq va boy ifodalashga harakat qiladi.

Hikoyalarda personajlarning ruhiy holati, ayniqsa, jamiyat bilan munosabatlari, ichki dunyosidagi muammolar, hayotga bo'lgan qarashlari tasvirlanadi. Uning asarlarida insonning tashqi ko'rinishi va ichki kechinmalari o'rtasidagi ziddiyatlar juda aniq tarzda aks etadi. Bu ruhiy holatlar hikoyaning rivojini, konfliktlarni va xarakterlarning o'zgarishini belgilaydi.

Zulfiya asarlarida ruhiyat tasviri ko'pincha qahramonlarning ichki dialoglari, xotiralar va hissiyotlar orqali ochib beriladi. Uning psixologik tahlil uslubi orqali har bir qahramonning ichki kechinmalari, ularning qarorlarining sabablariga chuqur kirish imkonini yaratadi. Bunda, qahramonlar o'zlarining ichki dunyosi bilan yuzma-yuz keladi, bu esa asarlarni yanada ta'sirli va hayotiy qiladi.

Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalarida ruhiyat tasvirining ifodalanishi insonning ichki iztiroblarini, qarama-qarshi his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarining psixologik asoslarini chuqurroq anglashga imkon beradi. Uning asarlarida ruhiyat va psixologiya o'rtasidagi bog'liqlik,

insonning ichki olami va tashqi dunyo bilan munosabatlari haqida yangi nuqtai nazarlarni keltirib chiqaradi.

Xulosa

Yozuvchi ana shu hayot haqiqatini biz o'ylamagan va kutmagan nuqtalarda badiiy kashf etishga erishganligi bilan o'zbek hikoyachiligi taraqqiyotiga hissa qo'shgan, deyishga haqlimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Turdiyeva Y. Personaj ruhiyati tasviri va uni yuzaga keltiruvchi vositalar. "O'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi taraqqiyoti, xalqaro hamkorlik masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Nukus, 2024-yil 15-mart. – B. 360-364.
2. Mahmudova Shoxista Abdusalomovna "Ijodkor obrazining badiiy talqinida psixologizm" International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. Fars Publishing. 2023/11/22. 544-556.
3. Shohista Abdusalomovna Mahmudova. [The concept of psychologism in the literature, techniques and methods of psychological image](#). 2019. 46-50.
4. Umarova Nuriniso Rakhimovna. [The Image of the Human Psyche in Abdulla Oripov's Poems](#).
5. Salima Cho'yanovna Jumayeva. "Yarador umid otlari" dostonida ijtimoiy motivlar talqini. Turkiy xalqlar adabiyoti tadqiqida innovatsion yondashuvlar mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17272045>. 2025. 286-290. Nokus
6. Sh, M. (2019). A. Artistic psychologism in uzbek literature of the twentieth century. *Omega science*.—Kirov. M Sh - Omega science.—Kirov, 2019
7. Ibragimova, D. I. (2024). An analysis of isajon sulton's historical prose: era, heroes, themes, and ideas. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 5(05), 120-127.
8. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.

9. Xujayev, M. I. (2021). Zaki Validiyning Turkiston ilmiy safari (1913-1914) ga oid tadqiqotlari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 776-788.